

*Iqtidor
g'unchalari*

YOSHLIK TUG'YONLARI

(She'rlar, hikoyalar)



"Hayot" nashriyoti
Andijon - 2005 yil


84(59)6-5 Bayoz She'rlar va hikoyalar
Шеърлар

Ushbu kitobga Andijon viloyati hokimligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarning ona Vatan, istiqlol, ilm-fan, sevgi-muhabbat, do'stlik, vatanparvarlik, kasb-kor, sadoqat va jasorat mavzularidagi she'rlari hamda hikoyalari kiritildi.

Vatanimiz mustaqilligi kelajagi porloq yoshlarning zo'r g'ayrat-shijoatlari, yuksak salohiyatlari, iqtidoru iste'dodlari bilan mustahkamlanib, kuchga to'lib, rivojlanishning yangi-yangi pog'onalariga ko'tarilayotganligidan dalolat beradi.

Shubhasiz, bu to'plam badiiyat muhlislariga samimiy tuhfa bo'lishiga ishonamiz.

1032068
29




09-14-05

HG - J/T ----- SHA

18-XI-05

"Yoshlik tug'yonlari" (Bayoz. She'rlar, hikoyalar)

© "Hayot" A. 2005



YOSHLIKNING JO'SHQIN TUYG'ULARI

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan yoshlarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

San'at sohasida "Nihol", adabiyot, fan-ta'lim, madaniyat-san'at yo'nalishlari bo'yicha Zulfiya nomidagi nufuzli mukofollarning tashkil etilishi Vatanimiz istiqboli bo'lmish yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishi uchun keng imkoniyatlar yaratilganligini ko'rsatib turibdi.

Viloyatimiz yoshlarining salmoqli qismini jamlagan Andijon viloyat hokimligi o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tizimidagi akademik litseylar va kollejlarda 2005-2006 o'quv yilida 80.000 ga yaqin o'quvchilar tahsil olmoqdalar. Bular turli kasb-hunarlarini egallab, jamiyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shadigan istiqbolli o'g'il-qizlardir.

Ma'lumki, 2005 yilda Toshkent vildyatida "Barkamol avlod - 2005" sport musobaqalarining final bosqichi bo'lib o'tdi. Unda viloyatimizdan 155 nafar sportchi qatnashdi. Shulardan 43 tasi qizlar. Yoshlarimiz sportning 15 turi bo'yicha tengdoshlari bilan bellashdilar.

Talabalarimiz "Barkamol avlod-2005" sport musobaqalari Respublika final bosqichida muvaffaqiyatli qatnashib, umumjamoa hisobida 1-o'rin egasi bo'ldilar. Yoshlar sportining barcha turlari bo'yicha o'z maholatlari namoyish etishib, Andijon sha'ni-sharafini munosib himoya qildilar.

Terma jamoa hisobida 14 ta oltin, 15 ta kumush, 14 ta bronza medali qo'lga kiritildi. Jamoamiz vakillari dasturda ko'rsatilgan sport turlari bo'yicha jami 201,5 ochko to'plab, Toshkent shahri, Toshkent viloyati jamoalarini ham ortda qoldirib ketdilar. Sportchi yoshlarimizdan Latif Jumaqulov, Said Abdurazzoqovlar belbog'li kurashdan; Ulug'bek Xolmurodov, Rahmon Toshmatov, Ahror Qurbonovlar boksdan; Yevgeniya Ageyeva badiiy



gimnastikadan: Farruh Karimov shaxmatdan Andijonimizga oltin medallar shodalari bilan qaytdilar.

Muvaffaqiyatlarimiz faqat sport sohasidagina emas, balki ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-ijodiy, kasb-hunar sohalarida ham alohida salmoqqa ega.

Yoshlarimiz erishgan, erishayotgan barcha yutuqlarda Prezidentimiz Islom Karimov belgilab bergan yo'l-yo'riqlar muhim dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda. Qo'lga kiritayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarimizda viloyatimiz hokimi Saydullo Begaliyevich Begaliyevning ko'rsatayotgan g'amxo'rliklari bizlarni yangi-yangi ijodiy marralarga chorlamoqda.

Andijonimiz yoshlarining ulkan otryadi hisoblangan o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quv dargohlaridagi talabalar yuqoridagi yuksak e'tiborga munosib tarzda bilim olmoqdalar va tarbiya ko'rmoqdalar.

Ularning har jihatdan barkamol bo'lib ta'lim olishlarida ko'p ming sonli yetuk pedagoglar, tarbiyachilar xizmati bilan bir qatorda boshqarmamiz yoshlarining sevimli "Kelajak" gazetasi ham, shoir-yozuvchilar, turli soha ustoz-murabbiylari, faxriylari bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlar, bahs-munozaralar, ko'rik-tanlovlar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarimiz qobiliyatlarini to'la namoyish etishlarida Respublikada birinchi bo'lib bizning viloyatimizda tashkil etilgan iqtidorli ijodkor yoshlar bayozining mamlakatimizdagi nufuzli nashriyotlardan biri bo'lmish "Hayot" nashriyotida 2002 yildan buyon har yili izchil chop etib kelinayotganligi ham yoshlar ijodi rivojida muhim omil bo'lmoqda.

"Yoshlik tug'yonlari" nomli mazkur adabiy-badiiy bayozga bu yil akademik litseylarimiz va kollejarimizda o'qib, ijod qilayotgan o'nlab yosh iqtidorli havaskor shoir va yozuvchilar asarlari jamlandi.

Ular ichida Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida o'tgan "Aqchako'l ilhomlari" yosh ijodkorlar III Respublika ko'rik-tanlovi ishtirokchilari, Andijon tibbiyot kolleji sobiq talabasi Arofat Usmonova va Andijon Sanoat kasb-hunar kolleji 3-kurs talabasi Nazokat Mirzayevalar borligi quvonarlidir. Bu yoshlarimiz ko'rik-tanlovda muvaffaqiyatli qatnashdilar. Xususan Arofatning mazkur tanlovda oliy o'rin sohibasi bo'lib, yuksak mukofot - televizorni xalqimizning sevimli shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov qo'lidan qabul qilib olishi yoshlar iste'dodining yuqori baholanishi, katta ishonchdir.




Bayozda Andijon shahar Bo'ston akademik litseyi o'quvchisi Dilnoza Abdurahmonovaning ham she'rlari bor. Bu she'rlardagi yoshlarga xos zukkolik, samimiyat, o'lkir zehn va shoirona nigoh she'riyatga oshno bo'lgan ma'naviyat muxlislarining yuraklarini to'ldiradi, ruhiyatini boyitadi. Nozik didli kitobxon birgina Dilnozaning "Bolaligim" she'rini o'qib chiqqach, yoshlar iqtidoriga iliq munosabatda bo'lishi tabiiy deb o'ylayman.

Bayozda Dilnoza Abdurahmonova singari Marg'uba Uraimova (Andijon kichik va o'rta biznes kolleji), Xurshida Omonova (Andijon tibbiyot kolleji), Zulfizar Rahmonova (Andijon milliy hunarmandchilik kolleji), Go'zaloy Ochilova (Izboskan ijtimoiy-iqtisodiyot pedkolleji) kabi shoira qizlarimizning she'rlari va hikoyalari o'quvchini hayajonga soladigan, o'ylantiradigan harorat borligi bu yoshlar istiqboliga umid uyg'otadi.

Har yili nashr etilishi an'anaga aylanib qolgan, mamlakatimiz viloyatlari ichida o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida yagona bo'lgan ushbu bayoz viloyatimiz iqtidorli ijodkor yoshlarining iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda katta ijodiy maydon bo'lib xizmat qiladi deb ishonaman.

Men iste'dodli, talantli yoshlarimizni muqaddas adabiyot maydonida, she'riyat yo'lida chekayotgan zahmatlari ro'yobga chiqishiga, badiiy ijoddagi orzulari ushalishiga chin yurakdan tilak bildirib, muvaffaqiyatlar tilayman.

***Foziljon ASRONOV,
Andijon viloyati hokimligi o'rta
maxsus, kasb-hunar ta'limi
boshqarmasi boshlig'i***



**Shahzoda
Abdug'afforova**

Andijon qurilish va uy-joy
kommunal xo'jaligi kasb-hunar
kolleji 2-bosqich talabasi.



DUNYOGA BOQ

Shirin til bo'l, bo'lma dilozor,
Ma'no bo'lsin aytar so'zingda.
Fikrli bo'l, idrokli, hushyor,
Dunyoga boq ziyrak ko'z bilan
Yolg'onlarga ishonmagin hech,
Haq yuzaga chiqar erta-kech,
Har jumboqni fikr bilan yech,
Dunyoga boq ziyrak ko'z bilan
Maqsadingga intilib yasha,
Jafolarni itqitib yasha,
Yomonlarga zarb berib yasha,
Dunyoga boq ziyrak ko'z bilan
Kunduz quyosh, tunda oy kabi
Vaqting kechsin yorug' yuz bilan.
Bo'lsin quyosh qalbidek qalbing,
Dunyoga boq ziyrak ko'z bilan.
Kerak bo'lsa, tog'ni talqon qil,
Bog'lar unsin bosgan izingda.
Cho'llarni sen tengsiz chaman qil,
Dunyoga boq ziyrak ko'z bilan
Orzularing armon bo'lmasin,
Puch yong'oqqa qo'yning to'lmasin.
Bevaqt umring guli so'lmasin,
Dunyoga boq ziyrak ko'z bilan
Orzularing ulkan va oppoq,
Kelajaging yana-da, porloq,
Ey yosh do'stim, g'ayrat-la har choq,
Dunyoga boq ziyrak ko'z bilan.



**Mahliyo
Nasriddinova**

Andijon san'at kolleji drama
teatri aktyori bo'limi 2-kurs
talabasi.



ONAJON

Onajon, men sizga ta'zim qilaman,
Sizni jondan ortiq sevib suyaman.
Oyoq gardingizni gavhar bilaman,
Sizga munosib chin farzand bo'laman.

Bag'ringizda doim shod-hurram yurdim,
Bir oz ko'rmay qolsam, qadringiz bildim,
Goh bilib, goh bilmay ranjitib qo'ydim...
Lek siz orzu qilgan farzand bo'laman.

"Bolam" deyishingiz o'zi bir tillo,
Har kuni ming marta qilasiz duo.
Siz bilan go'zaldir asli bu dunyo,
Men siz orzu qilgan farzand bo'laman.



Hali ushalmagan orzularim ko'p,
Dilimda asragan tuyg'ularim ko'p.
Go'dak kulgusidek g'ubor qo'nmagan,
O'ynoqi, sho'x-shodon kulgularim ko'p.

Yuragimda tog'dek bardoshlarim bor,
Qalbimda chaqnagan quyoshlarim boq.
Shodligim yashirin qarog'larimda,
G'amlarni kuydirar ko'zyoshlarim bor.

Hayolda gullagan olamlarim bor,
Tog'larni ezguvchi dard-g'amlarim bor.
Satrlardan kuygan qalamim qo'lda,
Bossam, gullar ungay qadamlarim bor...

USTOZ

Azim daryolardan yuragi ummon,
Qalbida goh sukut, gohida to'fon,
Insonlar ichida xazrati inson,
Ko'ngilga zavq bergan dengizsiz, ustoz.

Mehri kamalakdek berguvchi jilo,
Har so'zi oftobdek sochguvchi ziyo,
Himmat, oqibatda tengi yo'q aslo,
Shafqat. muruvvatda tengsizsiz, ustoz.

G'amxo'rlikda otam ham onam misol,
Kamtarlikda oddiy bir odam misol,
Poklikda nurday yo bir shabnam misol,
Bag'ri xayolidek cheksizsiz, ustoz.



Marg'uba Uraimova



Marg'uba Andijon tumanidagi Hakan qishlog'ida tug'ilgan.

U hozir Andijon shahridagi "Andijon kichik va o'rta biznes" kollejining 2-kursida o'qimoq-da. U "Adiblar gurungi" adabiy to'garagining faol a'zosi.

AYOL

Olamning quvonchi, go'zalligi sen,
Sen bilan shodlikka to'ladi dunyo.
Hayotning toabad azalligi sen,
Mehrli ko'zingdan yog'ilur ziyo.

Sening bilan borliq chiroy ochadi,
Sen bo'lsang, yurakdan qayg'u qochadi.
Sen bo'lsang, farzandlar armonsiz yashar,
Senga doim sevinch-shodlik yarashar.

Egningda yaltiroq libos bo'lmasa,
Qalbingda oltindan a'lo mehr bor.
Sen Alloh yaratgan muqaddas zotsan,
Sening qiyosing yo'q dunyoda, ayol!

Sizni sevdim, sevilmadim lek,
Ishqingizda kuydim telbadek.
Menga befarq bo'lasiz, ammo
O'zga gulni xush ko'rasiz, bek.

Ko'ksingizda dukirlab turgan -
Yurak emas, qotib qolgan tosh.
Sizni o'rgach, jilmayib kulgan -
Chehram emas, umidvor bardosh!



SIZ BILMAYSIZ

Siz bilmaysiz, kechalar bedor -
Hayollarim uchib siz tomon,
Ko'zlaringiz o'ylayman, ey yor,
Siz bilmaysiz, shunisi yomon.

Yursam-tursam faqat sizni deb,
Hatto kechdim butun borliqdan.
Hech ko'rmaysiz o'zingizga ep,
Shod etmoqni bizni ham bir dam.

His qilmaysiz, misli Laylidek -
Yuragimga yutayurman qon.
Siz bilasiz: kelolmaysiz lek.
Siz kelmaysiz, shunisi yomon!

ILTIJO

Mayliga, men uchun Tojmahal qurma,
Bir bora shod etgin bu g'arib ko'nglim.
Mayliga, hamisha qarshimda turma,
Faqat uzoq ketma, mendan, sevgilim.

Kel, birga muhabbat qasrin quraylik,
Toabad shu yerda davron suraylik.
Axir ishqni dilga Yaratgan berdi,
Allohdan baxtimiz birga so'raylik.

Qalbim nidosiga quloq sol bir bor,
Yorim, ketma uzoq, mening bilan qol.
Mayli, nima desa, deyaverishsin.
Quyoshda erir-ku yoqqan bilan qor.



DARD

Hijronlar beayov qamchilar meni,
Qonimni simirib ichadi armon.
Sog'inch esa yaramga sepganicha tuz,
Rohat topar jonimni og'ritib gumon.

Sevgi yuragimga solgandi olov,
Endi qaibimni tishlaydi alam.
Charaqlab turardi ko'zlarimda nur,
Qog'ozni hijronga bo'yaydi qalam.

Sochlarim shamol-la o'ynashmaydi hech,
Lablarim xandonlar otib kulmaydi.
Endi baxt neligin bilmolikka kech,
Bunday qalb dog'ini yuvib bo'lmaydi.

Yig'laydi ko'nglimda muhabbat - sag'ir,
Armonlar uning ustidan kular.
Bu dardga chidolmay ezildi bag'ir,
Qalbim tillaridan ismingni yular.

Ko'zlar nigohlarin sendan buradi,
Yuragimda hijron hukm suradi.
Mehr zarrasiga zorlandi yurak,
Hijron zarbasidan jismim nuradi.

Sog'inchning tikani ko'ksimga botar,
Hijron azobidan tonglarim otar.
Orzular qarshimda boshini egib,
Nigohim jimgina xayolga botar.

Armon-chi, qalb bilan kelishib qolib,
Umrin yo'llarida xandonlar otar.
Gumon yuragimga o'rnashib olib,
Begunoh sevgimga nayzasin otar...



G'ayrat Mirzo

G'ayratjon Sirojiddinov 1985 yilning 3 iyunida Andijon shahrining Qo'shtepa mahallasida tug'ilgan.

Andijon iqtisodiyot kollejining talabasi.

She'rlari "Kelajak", "Xolis" gazetalarida e'lon qilingan.

U bir necha yildan buyon "Kelajak" gazetasining maxsus muxbiri bo'lib xizmat qilmoqda.



YURAGIM

Ey darvesh yuragim, neni istaysan?
Betinim chopqilab, nega qistaysan?
Bezovta, beorom, to'lg'anib, kuyib,
Osmonday bag'rimga go'yo sig'maysan.

Dunyoning g'amlari tushdimi senga?
Yoki qiynaydimi og'riqli unlar?
Faqat sen tushuntir, notinchsan nega?
Malham topilmasmi kunduzlar, tunlar?

Ayt, senga bahorning ilk tonglarida
Tashladimi gul yuz bir o'tli nigoh?
Yo kun tabassumi oshirmish zavqing,
Yo tunning siridan bo'ldingmi ogoh?!

Darding tushunolmay qoldim, yuragim,
Holating sababin anglat berib sas.
Faqat ezguliklar dardida yonib,
Yaxshiliklar uchun urib tursang - bas!



QIZ HAZILI

- Xat yozibsan bir dasta, qo'lingga qalam botib,
So'zlaring o'qiymanu kulaman qotib-qotib.

Shumi sevgi degani, "oh-voh"dan boshqasi yo'q,
Yana ancha gaping bor, yozibsan qo'shib-chatib.

Sevsang, sev, lek qalbimni avval anglab tushungil,
Sen meni o'ylaysanmi kun botib, tonglar otib?

Xayolimdan chiqibsan, taniyolmay turibman,
O'zingni ko'rsatgin bir katta ko'chamdan o'tib.

"Beparvo", "bevafo" deb, qilaverma malomat,
Shunday xat yozaversang, bo'lib ketasan kotib.

Seni yodda saqlay deb, ishonchingni oqlay deb,
Yostig'imning tagiga xatingni qo'ydim yotib...

KO'CHA SUPURMAY...

Ko'cha supurmay qo'ydimi qizlar,
Kelinlarga endi qolibdi bu ish.
Nahot ularda uxlaydi hislar,
Uyg'onardi-ku sayramasdan qush.

Ko'cha supurmay qo'ydimi qizlar,
Goha quloqqa chalinar mish-mish.
Ishonmayman, yo'q, sahargi kezlar
Ular ko'rarmish shirin-shirin tush.

Ko'cha supurmay qo'ydimi qizlar,
Goha falakka o'rlab qolar chang.
Ey singillarim, oh, qaydasizlar?
Suv sepmasangiz holim bo'lur tang...



Qo'llari gulday, jon singiljonlar,
Saharlar turingiz, oching darvoza.
Ko'chalar bo'lsin mehrdan so'lim,
Chehrangiz kabi go'zal va toza!

"Ko'cha supurmay qo'yibdi qizlar" -
Dilimni o'rtar bunday malomat.
G'ayratingizdan quvonsin ko'zlar,
Saodat ila bo'ling salomat!

SENI O'YLAYMAN

Go'zallik sabosi esganda dilga,
Seni qiyosladim nilufar gulga.
Qalamim kuyganicha kirganda tilga,
Men seni esladim, lek ko'rmay turib.

Sog'inaman, dildor, shirin so'zingni,
Uchratay deyman sho'h, o'tli ko'zingni,
Tasavvur aylayman gulday yuzingni,
Men seni o'ylayman, lek ko'rmay turib.

Senday gulchehrani sevgan men o'zim,
Izmi-ixtiyorin bergan men o'zim,
Izlab devonaday yurgan men o'zim,
Men seni o'ylayman, lek ko'rmay turib.

Ey go'zal, bunchalar bo'lma bag'ri tosh,
Qiynoqlaring ezib, ko'zdan to'kdi yosh,
Ko'rin bo'lsang hamki oy yoki quyosh!
Men seni o'ylayman, o'ylayman hamon...



GUL QIZLAR

Hayotni o'yinchoq bilmang, guloyim,
Bag'ri tosh bo'larmi goho muloyim?
Umringiz ichida doim, iloyim,
Gul qizlar, hayotga boqing boricha,
Iboli bo'lingiz gul izhoricha.

Hayo pardasini sizitmang aslo,
Bu dunyo ko'zgudir, ko'rinar darrov.
Yomonga yondoshmang, yuqadi qaro,
Gul qizlar, hayotga boqing boricha,
Iboni saqlangiz gul izhoricha.

Liboslar yaltirar, bo'yingiz cho'ziq,
Bu chog' gul bargida tortilar chiziq.
So'zim malol olmang, dilda bir og'riq;
Gul qizlar, hayotga boqing boricha,
Iboni saqlangiz gul izhoricha.

Bir holat bahona, oldim qalamga,
Men oshiq yiglitman, qoldim alamga.
Endi sizni maqtab aytay holamga,
Gul qizlar, hayotga boqing boricha,
Iboni saqlangiz gul izhoricha.

Sovchilar boradi izlab nomus, or,
Sizlardek farishta, hurliqo, dildor.
Dil ochay: sizlarga G'ayrat xaridor!
Hur qizlar, hayotga boqing boricha,
Iboni saqlangiz gul izhoricha.



Nasiba Sulaymonova

Izboskan Pedgogika ijtimoiy
iqtisodiyot kollejining maktab-
gacha ta'lim bo'limi II-bosqich
talabasi.



SENGA

Bir shirin tush bo'laman, senga,
Hayollari ko'kni ko'zlagan.
Armondirman endi beayov,
Orzulardan yonib so'zlagan.
Yo'llaringda gulman, rayhonman,
Seni doim sarxush etuvchi.
Hayotingning ufqida nurga -
To'lgan tongman - porlab otguvchi,
Ey yolg'onchi, qo'ygil, tiz cho'kma,
Yolg'oningdan qalbim muzladi.
Aldovlaring ko'tarolmasdan,
Dilim shunday achchiq so'zladi.

SO'NGGI BOR

Yolg'iz ko'ngil vayron bog'ida
Ma'yus kuzgi shamollar daydir.
Evoh, yana eshik chertadi -
Soxta sevgi, kirishga shaydir.

Nahot bilmas: yolg'on dunyoku
Unga qanday ishonar yurak
Bir bevafo aldagani rost,
Armon bo'lib qoldiku tilak.
Turganini bilmas bevafo
"Sevgilim" deb so'nggi bor aytib.
U kelib ko'ngilga shamolday,
Yana shunday ketadir qaytib...



Omonova Xurshidaxon Karimjon qizi.

1987 yilning 24 aprelida tavallud topgan. 2002 yili Andijon shahridagi 17-o'rta maktabning 9-sinfini imtiyozli tamomlagan. Hozirda Andijon tibbiyot kollejining talabasi.

She'r va hikoyalari "Kelajak", "Vodiy shifokori", "Aziz bo'stonim" gazetalarida chop etilmoqda.



O'GAY ONA

(Hikoya)

Iliq oqshom. Ko'kni o'zgacha bir go'zallik chulg'ayotir. Huv bo'shliqda suzib yurgan oyga, injulardek yarqirab, sehrli nur sochayotgan yulduzlarga boqaman. Barglarning shivir-shiviri eshitiladi. Shu lahzalarda miyamda munis o'ylar charx ura boshlamoqda. Hayolimda onamning xorg'in chehrasi. Bu qiyofa goh yulduzlar, goh teraklar orasida menga boqayotganday... Onajonim... bevaqt hazon bo'ldingiz. Yurak xastaligi, tinmay davolanishlar, muolajalar... Baribir foydasi bo'lmadi. Biz - ikki qiz, bir o'g'ilni 36 yoshingizda dadamga qoldirib, dunyodan ko'z yumdingiz. Dadam sizni tuzalib ketadi degan umid bilan yashadi. Afsus, inson hamma narsaga chidashi mumkin ekan. U qanchalik urinmasin, talvasaga tushmasin, taqdiri azaldan, peshonaga bitigidan qochib qutula olmas ekan...

Ertaga otamni uylantirishmoqchi. Uyimizga o'gay ona keladi. O'gay ona haqida o'ylasam, "Zumrad va Qimmat" ertagidagi o'gay ona ko'z oldimga keladi. Uni ko'rmagan bo'lsam ham, tasavvurimda ertaklaridagi o'gay onalarga qiyos qilaman. Dadamga ham qiyin bo'lib ketdi. Ko'chaga chiqib erkak, uyga kirib ayol... Mening yoshim 16 da



bo'lgani bilan, hali risoladagidek uy yumushlarini bilmas edim. Qarindoshlarimiz jam bo'lishib, "oilaga albatta ayol kerak, tiriklarni o'ylaylik" deyishdi.

Oh... onajonim. O'gay ona sizning o'rningizni bosa olarmidi...?!

...Gulbahor opa odatdagidek tongni erta kutib oldi. Bu uning azaliy odati. Yuvinib, taranib, qo'lga supurgi oldi. Turmush o'rtog'ining qizlar katta bo'lib qolgani, supurish-sidirish, erta turishni odat qilishsin deganiga qaramay, qizlarni uyg'otgisi kelmadi. "Mayli, picha uxlab olishsin, o'z onalari hayot bo'lganda, huddi mendek ish tutgan bo'larmidi..."

Gulbahor opani tibbiyot kollejni tugatgan yili 19 yoshida turmushga uzatishgan edi. Turmush o'rtog'i bilan 11 yil birga yashadilar, lekin farzand bo'lmadi. "Farzand oila gultoji" deyishadi. Lekin bir necha marfa davolandilar, irim-sirim qilishdi, taqdir ulardan bir tirnoqni ayadi, gap-so'zsiz ajralishdilar Gulbahor opa hamshira bo'lib ishlar, ota-onasi esa suyuqli qizining taqdiridan iztirobda edilar. Dadasining oshna-og'aynilari Avazbek degan yigitning xotini o'lib, 3 farzandi bilan qolganligi, bolalarga ona kerakligini aytishib, Gulbahorga og'iz solishdi. Taqdir, nasib ekan. Gulbahor bu oilaga kirib keldi.

Gulbahor opa 3 farzandga yaxshi muomala qilar, ko'ngliga qarardi. Hamir qilib non yopish, mazali ovqatlar pishirish, kir-chir, supurish-sidirish ishlarini o'z qo'lga oldi. Kichik qizi Barno va llyosbek unga tez elakishib ketdi, lekin katta qizi Ra'no hamon begonaday, qovog'ini ochmaydi. "Mayli, ko'nikib ketar. Axir o'z tuqqan onasi bo'lmasam. Odam hamma narsaga to'yadi, boylikka, amalga, shon-shuhratga... faqat bir narsaga - mehrga to'ymaydi. Bu masalada shohu gado barobar. Mayli, mehr ko'zda deyishadi-ku... Meni ham bir kun onasiday qabul qilar..."

Ra'no ertalab o'rnidan turdi-yu, kimningdir ovozini eshitdi. Bu o'gay onasi Gulbahor opaning ovozi edi. U boshqa xonada osig'lik turgan rasmga - onasi Saodat opaning suratiga qarab so'zlashardi. "Saodat opa! Men



sizni rasmingiz orqali taniman. Avaz aka bilan 18 yil birga yashab, 3 farzandli bo'libsiz. Ro'zg'or g'or, ajdarho deyishadi. Suv kelsa simirib, tog' kelsa kemirib, dang'illama uchastkani qurib bitkazibsizlar. Qani endi qiynalib qurgan uylaringizda o'zingiz yayrab o'tirsangiz. Bu uylarni har bir devorida sizning qo'llaringiz izi borday. Qani endi bolalaringizga o'zingiz bosh bo'lib, karnay-surnaylar bilan to'y qilsangiz. Kelin salomlarni ko'rganda hamma armonlaringiz chiqib ketardi. Afsus, umringiz qisqa ekan. Men esa tayyor oshga kelib o'tirgandayman. Saodat opa! Qabringiz nurga to'lsin, sizga Oллоh jannatlardan joy ato qilsin. Men umrim boricha bolalaringizga onalik qilaman, o'z bolamday tarbiyalab, turmushga uzatib, uylayman. Hayotdan yosh ketgan ayol o'tmishini emas, kelajakni, ortidan kelayotgan bolalarni o'ylar ekan. Bolalar menga o'rganib qolishdi. Lekin Ra'no hali uncha ro'yxushlik bermayapti. Axir men sizni o'lishingizga sababchi emasman-ku. Mayli o'rganib qolar, hali yosh-da..."

Ra'no bu so'zlarni eshitib o'yga toldi. "Rostdan ham Gulbahor opada ne gunoh bor. Ro'zg'orning barcha yumushlarini o'z qo'lga oldi. Dadamga, menga, ukalarimga mehr bilan qarayapti. "Ra'noxon, nima yeysiz, nima qilib beray, sochingizni tarab qo'yaymi, qaysi ko'ylagingizni kiyasiz, dazmollab beray", - deb esi ketadi-ku. Axir Gulbahor opa bizga o'z onamizday mehr berayapti-ku..."

Ra'no asta kirib Gulbahor opaga yaqinlashdi.

- Meni kechiring, ayajon, - deb bag'riga otildi. Gulbahor opaning ko'zlaridan yosh oqdi. Bu sevinch ko'z yoshlari edi.

Ra'no shu kuni tush ko'rdi. Tushida onasi oppoq kiyimda osmondan turib bularga gul sochardi. Uning yuzidan xotirjamlik balqirdi, go'yo u o'z farzandlaridan xotirjam bo'lgandek edi...



**Zulfizar
Rahmonova**

Andijon hunarmandchilik va oziq-ovqat kasb-hunar kolleji talabasi.

Hikoyalari "Kelajak", "Iqbol" gazetalarida yoritilib turiladi.



ESTELLA


(Hikoya)

Yo'nalishdagi poyezd soat 5.00 da vokzalda bo'lishi kerak edi.

Esetlla ota-onasi bilan bobosini kutgani chiqqan edi. Vaqt o'tib borardi. Soat 5.00 Poyezddan darak yo'q. Besh minut, o'n minut... o'tdi... Poyezd ko'rinmas, kutayotganlar poyezdning nega kechikayotganligini surishtira boshlashdi. Bir ozdan so'ng... sovuq xabar keldi. Poyezd qaysidir kilometrda halokatga uchrabdi. Odamlar halok bo'libdi. Tirik qolganlar haqida gap yo'q. Birdan vokzalni dod-faryod qopladi. Kutayotganlar nima qilishini bilishmay, dod solishar, bir-biriga jovdirashar, ammo hech kim hech narsani tushunmas, balki ko'rmas ham edilar.

Estella o'tirib qoldi. Tomog'iga bir narsa tiqildi. Yonida yig'layotgan ota-onasiga qaraydiyu, yerga qarab o'kirardi. U bobosini bo'lakcha yaxshi ko'rardi. Endi u yo'q - bobosi yo'q!

Oradan qancha vaqt o'tdi, noaniq. Estella bir oz hushiga keldi. Odamlar qayoqlargadir tarqalib ketibdi.



Ota-onasi bobosi jasadini murdalar ichidan topib kelishdi. Boboni Estellaning ko'z oldida odamlar ko'mib keldilar...

Estella bobosiga ichikib, boshqacharoq bo'lib qoldi. Maktabga ham bormay qo'ydi. O'rtoqlari bilan ham so'zlashmay, odamovi bo'lib qoldi. Qachon bo'lmasin u o'ychan, bobosi bir lahza bo'lsin, ko'z oldidan ketmasdi.

U fojia qanday yuz berganini o'ylagani o'ylagan, goh-goh onasi tug'ilgan kunida sovg'a qilgan "Ruhlar" kitobini qo'lga olar, charchaguncha o'qirdi. Shundan so'ng dili yorishganday sezardi o'zini.

Ahvoldan tashvishlangan ota-onasi uni maslahatlashib, sohil bo'yidagi qarindoshlarinikiga dam olgani yuborishdi.

Sohil bo'yi chindan ham go'zal ekan. Estella ertalab sohil bo'yiga borar, suvga uzoq-uzoq termilib hayol surardi. Oradan uch-to'rt kun o'tgach, u sohil atroflarini ham aylana boshladi. Besh kundan keyin ikki chaqirimcha naridan temir yo'li o'tganligini bilib qoldi. Uning hayolida faqat poyezd shakllanardi.

Bir kuni temir yo'lini ko'rishga bordi. Qarasa, relsning yonginasida, unga suyanib bir chol o'tiribdi. Shu payt sal naridan pishqirib poyezd kelyapti. Estella cholni qutqarmoqchi bo'lib yugurdiyu, hatto "qoching" deyishga ham ulgurmay, poyezd o'tib ketdi. Estella joyida qotib qoldi. Qancha shu holda turdi - bilmaydi. Ko'zini ochsa, haligi chol o'z joyida avvalgiday o'tiribdi.

Estella o'zini yo'qotdi. Ko'z oldi qorong'illashdi. Boshini changalladi. "O'ngimmi, tushimmi?!" deya hushini yig'ishga harakat qildi. Chol tomonga yurdi, ko'zini kattaroq ochib qaradi. Tush emas, o'ngi! U yana yurdi shekilli, cholga yaqinlashib qoldi. Asta titroq ovozda dedi.

- Siz, siz qanday qilib... axir ustingizdan poyezd o'tib ketdi-ku! Chol gapira boshladi.

- A, bu hodisa har doim bo'ladi. Qanchadan-qancha poyezdlar ustimdan o'tib ketaveradi. Men ham o'tiraveraman. Ha, aytgancha, sen meni ko'ryapsanmi?

- Ha, ko'ryapman.

- Nega boshqalar ko'rmaydi?



Estella avvaliga hayron bo'ldi va dedi:

- Menga qo'lingizni bering.

Ammo qo'llar hech bir-biriga yetmadi. Estella qo'rqqanidan qochib ketmoqchi bo'ldi, lekin cholga achindi. Unga yordam berishga qaror qildi, so'ng hayolidan o'tgan birinchi fikrini aytdi:

- Men bildim, siz ruhsiz.

Chol qah-qah otib kulib yubordi.

- Ey qizim, men ruh bo'lsam, nega meni ko'ryapsan?

- Yaxshi, ruh bo'lmasangiz, nega qo'lingiz qo'limga tegmayapti?

- Rost, o'lganimga ko'p bo'lmadi. Safardan qaytayotib poyezd falokati tufayli halok bo'lganman Ma'mur ismli do'stim bilan birga edim. U ham o'lgandir. U Estella ismli nabirasini juda sog'ingan edi... Chol shunday deb qizga qaradi. Estellaning ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan edi.

- Nega yig'laysan?

- Men o'sha do'stingizning nabirasi Estellaman.

- Afsus... u seni ko'ra olmabdi-da. U ham...

Chol jim qoldi.

- Ma'mur bu yerda yo'q. Uyingga bor, qizim, - dedi xo'rsinib.

Estella ko'zlarida yosh bilan uyiga qaytdi.



***Nilufar
Tojiyeva***



INTILADI

Olmay hatto bir lahza orom,
Intiladi, uchratmoqlik - kom,
Izlar, o'sha hayolda mudom:
Ko'zlar tanish, nigohlar tanish.

Ul ko'zlarni sevib yashaydi,
Uchratsam deb nigoh tashlaydi,
Bir bor ko'rsa, gulday yashnaydi,
Ko'zlar tanish, nigohlar tanish.

Tugayozgan edi qarori,
Uchrab qoldi ko'nglida bori.
Ketmas endi mangu bahori!
Ko'zlar tanish, nigohlar tanish!

UCHGAN YULDUZ

Ko'k bag'ridan uchganda yulduz,
Oyni dardda ado etarkan.
Cho'kkanicha samoga hanuz
Taqdir ipin bog'lab ketarkan.

Uchgan yulduz, yor muhabbati,
O'tbo'ronday lovullab ko'chding.
Samoningmas, mening bag'rimni
Makon etding, yondirib quchding!



Hurmatoy Abdullayeva

1988 yili Oltinko'l tumanining Jiyanbek qishlog'ida tug'ilgan. Hozirda Bo'z pedagogika kollejining Mehnat ta'limi bo'limi 2 bosqich talabasi.



ONAM

Sizsiz yorug' jahonim,
Yashnagan gulbo'stonim.
Kun, tun menga parvona,
Munisim, mehribonim.

Nasihatgo'ysiz dono,
Har so'zingiz serma'no.
Sizga sodiq farzandman,
Borlig'im, jonim ona.

O'zimni umr bo'yi
Ezgu ishga chog'layman.
Ona, farzandlik burchim -
Oq sut kabi oqlayman.

O'KINCH

Dunyoning yarmi quvonch,
Yarmi o'kinchmi, yo rab?
Shodliklardan entiksam,
G'amda kuyaman ingrab.

Imtihonmi bu hayot?
Sinovlari ko'p og'ir.



Bevafolar topar baxt,
Vafodor ishqı sag'ir.

Sinovlarga bardosh qil,
Yurak, yashashdan tolma.
Orzularim - uchqur ot,
Sen aro yo'lda qolma.

KO'ZLARING MA'YUS

Sening ko'zlaring ma'yus,
Hayotimni talx etding.
Dil rozimni tinglamay,
Hijronga tashlab ketding.

Bilib qo'y, bevafo yor,
Tutar sevgim uvoli.
Umrbod qiynar seni
Sag'ir ishqing zavoli.

Hazil

Ikkimizni qoralab,
Ba'zilar to'qir mish-mish:
Falonchining o'g'lini
Falonchixon sevarmish.

Ishqimiz oshkor bo'ldi,
Bizni chaynashar rosa.
Bog'imga kirganmishsan
Oqshomda devor osha.

Eh, vaysaqi kimsalar,
Mish-mishga o'chsiz buncha?
Tilingiz tiyib turing,
Loaqal to'y o'tguncha.



Sabohat Anorova

(Sabohat Anor)

Andijon viloyati, Asaka tumanida 1984 yili tug'ilgan. Marhamat Agro sanoat kasb-hunar kollejida huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha tahsil ko'rmoqda.

TOMCHILAR

Yomg'irlar qizlarning sochidek so'lim,
Bog'-rog', chamanlarda mayin tomchilar.
Maysalar yayraydi, yashnaydi ko'nglim,
Yomg'ir tomchilari - chin ilhomchilar.

Bahor yomg'irlarin har tomchisi - dur,
Yaproqlarda billur sirg'alar kabi.
Tomchilar bahorning sirli so'zlari,
Entikib-entikib tinglaydi qalbim...

BORMIKAN

Shu qadar devona, shu qadar qaysar
Bir diydorlashuvga umrin beruvchi,
Oyog'i ostida tursa hamki jar,
Bormikan men kabi uni sevuvchi?!



Taqdir darvozasin ochishga mendek -
Bormikan hattoki jonini tutgan!
Tushlarida o'pib baxt ostonasin,
Baxtli lahzalarni sog'inib kutgan...

Shaydolar izingiz quchib yasharkan,
Majnunga aylanib ketgan nechasi.
Qaro tun ko'zingizga juda o'xsharkan,
Ko'zingizni ko'rganday bo'ldim kechasi.

Vo ajab, bir bora o'zini ko'rmay,
Sabrga suyanib o'tganlar ozmi.
Hatto hayolida yaqin borolmay,
Sizni suyganlar bor deyishar, rostmi..

AYT

Hey shodlik, bir bora kelarmisan, ayt,
Mening vayronadek o'ksik qalbimga?
Quvonchim, qaydasan, izlaringga qayt,
Tole kulib boqmish endi qadringga.

Yuragim, taqdirning o'yinlariga
Bardoshing yetarmi, tugatmay alam?!
Beg'ubor hislarim bo'yinlariga
Bunchalar osilib chirmashmagin, g'am!

Ey, tole taxtini talashgan g'ussa!
Men seni xudoga solib qo'yganman.
Sabrimdan tosh yasab seni yengmoqqa,
Sochim tolasidan dorlar o'rganman.



Gulida O'ljaboyeva

Baliqchi tumani Olimbek qishlog'ida tug'ilgan. 2003 yili Mingbuloq agrosanoat kasb-hunar kollejining huquqshunoslik bo'limiga o'qishga kirgan.

Hozir u mazkur kollejning 2-kurs talabasi.



SIZNI ESLAYMAN

Ba'zida yuragim to'lib ketganda,
Do'stlar ham begona bo'lib ketganda,
Alamlar qalbimni tilib ketganda,
Men sizni eslayman, aziz onajon.

Ishimdan odamlar mamnun -shod bo'lsa,
G'ayratimdan yerlar gul-obod bo'lsa,
Qayerda yaxshi bir inson yod bo'lsa,
Men sizni eslayman, aziz onajon.

Yo'limda zarradek ziyo ko'rsam ham,
Ziyoga g'arq bo'lgan dunyo ko'rsam ham,
Sokin oqib turgan daryo ko'rsam ham,
Men sizni eslayman, aziz onajon.

Oh, bu qanday azob bo'ldi,
Yovlik qilib kuydirsalar.
Birovlarga "u yomon" deb,
O'zlarini suydirsalar.
Mayli, deyman, berurman dosh,
Azoblardan to'kmayman yosh.
Yomonlikni kasb qilganlar,
O'zi bir kun bo'lajak fosh.



Xolida Matkarimova

1987 yil 12 aprelda Ulug'nor tumani Mingbuloq qishlog'ida tug'ilgan. Maktabda o'qib, yurgan kezarida badiiy ijod bilan, rassomchilik bilan shug'ullangan.

2002-2003 yillarda yosh rassomlar viloyat ko'rik-tanlovida faxrli birinchi o'rinni egallagan. 2006 yilda O'zbekiston havo yo'llari va teleradiokompaniyasi hamkorlikda o'tkazgan yosh rassomlar tanlovida ham birinchi o'rinni egallab, Faxriy yorliq va qimmatbaho sovrin sohibasi bo'lgan.

Hozirda Mingbuloq agrosanoat kasb-hunar kolleji 2-bosqich talabasi.



VATANIM

Mening ona vatanim,
Ulg'aygan gul maskanim,
Mehribonsan - onasan,
"Bolam" deya yonasan.
Quyoshing nur sochadi,
Bog'laring gul ochadi.
Hurlikdan sayroq qushing,
Yangrar mag'rur tovushing.
Dunyo ichra dunyosan.
Menga jondan a'losan.
Doim tiniq osmon bo'l,
Baxtiyor bo'l, omon bo'l.



TUSHIMDA

Bir kun dadam shaharga
Ketayotgan edilar.
Meni ham o'zi bilan
Olib boray dedilar.

Kulimsirab dadamlar
"Borasan" deb aytdilar.
Saharda "ketyapmiz" deb,
Uyqudan uyg'otdilar.

Men juda ham suyundim,
Apil-tapil kiyindim,
Sumkalarni ko'tardik,
Shahar tomon ketardik,

Yo'lda bir oz tin oldik,
Muzqaymoq ko'rib qoldik.
Bir chekkaga o'tirib,
Lab-lunjimiz to'ldirib,

Muzqaymoqdan tushirdik.
Tishimiz zing'illadi,
Bo'shasha bordi asab.
Muz chiqib tanamizdan,

Og'riq berdi ko'p azob.
Dadam-ku "voy-voy" deya,
Chidab bordi qoshimda.
Men "dod" deb qichqirvordim,
Uyg'onsam, bu - tushim-da!



*Nilufar
Begmatova*

1987 yili Andijon viloyati,
Shahrixon tumanining Nazar-
mahram qishlog'ida tug'ilgan.

Hozirda Bo'z pedagogika
kollejining mehnat ta'limi
bo'limi 2 bosqich talabasi.

QIZLAR

O'zbekimning qizlari
To'lin oydir yuzlari.
Shirin-shakkar so'zlari,
Hayosi bilan go'zal.

Odob bilan dugona,
Ishqi bilan hamxona.
Tengsiz go'zal, jonona,
Ibosi bilan go'zal.

Izlanar, ilm olar,
Qalbi ilhomga to'lar.
Dunyoga chiqmoq bo'lar,
Vafosi bilan go'zal.



ARMONLI ISHQ

Vujudimni yoqar iztirob,
Orzularim qo'l yetmas sarob.
Ilk muhabbat beradi azob,
Armonlarga alishdim ishqni.

Aytolmadim sevgimni yorga,
Botdim g'amga, qoldim ozorga.
Yor qayrilmas oshiqizorga,
Armonlarga alishdim ishqni.

Taqdir meni shu kuyga soldi,
Halovatim tamom yo'qoldi.
Yo'lga boqib, ko'zlarim toldi,
Armonlarga alishdim ishqni.

Yorim, senga tilayman omad,
Eslab qo'ygin gohida faqat.
Hayot o'zi juda beshafqat,
Armonlarga alishdim ishqni.



Sudoba Kattabekova

Sudoba Bo'z pedagogika kollejida tahsil ko'rgan. Yoshligidan militsiya xodimi bo'lishni orzu qilgan. Buning uchun baquvvat va epchil bo'lish zarurligini anglab, sportning "Taekvon-do" turi bilan muntazam shug'ullana boshladi.

Sportni, xususan, "Taekvon-do"ni hayotining ajralmas bo'lagi deb bilgan Sudoba 2001 yildan tuman va viloyat musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashib, pedkollej sharafini, tuman va viloyat sharafini himoya qila boshladi. Huddi shu yili u Andijon viloyati birinchiligida uchinchi o'rin sohibasi, 2002 yilda Buxoroda o'tkazilgan Respublika birinchiligida bronza medali egasi bo'ldi.

2002 yilning sentyabr oyida Respublika "Taekvon-do" assotsiatsiyasidan kelgan nufuzli hakamlar imtihonida unga "Qora xoshiyali qizil belbog' sohibasi" martabasini berishdi va O'zbekiston milliy "Taekvon-do" assotsiatsiyasi a'zoligiga qabul qilganligi haqidagi pasportni topshirishdi.

Sudoba 2003 yilning 1 marti kuni Toshkentda o'tkazilgan Respublika birinchiligida kumush medalni qo'lga kiritdi. Yana O'zbekiston Respublikasi ochiq chempionatida Guliston shahrida 2003 yilning 28 martida bronza medali sovrindori bo'ldi.

Tinib-tinchimas pahlavon Sudobani kelgusida yangi-yangi zafarlar quchishi uning ilk yuksaklikka parvoz qildirgan Bo'z ped kolleji mehnat jamoasi uchun ham sharaflil ekanligi shubhasiz.





**Hamida
Mamadaliyeva**

Xo'jaobodning Egamberdi-
obod qishlog'ida tug'ilgan.

Muhammad Yusuf nomidagi
viloyat ijodkor yoshlar klu-
bining faol, iqtidorli a'zolaridan
biri.

U san'at litseyi o'quvchisi.



ORZU

Bo'lsam, qani, quvnoq kapalak,
Chiroyim-chi, zavq bersa gulga.
Kapalakday oz kechgan umrim
Tutashtirsa ming yillik yo'lga.
Yoki bo'lsam anhordagi suv,
Qirg'oqlarga o'ynoqlab tohsam.
Tashna bo'lgan o'tu o'zanlar -
Chanqog'ini bir bora bossam.
Bo'lsam qani, samodagi oy,
Qora tunni yorug' aylasam.
Qani edi shu chog' o'zimni
Yorug'likka soqchi saylasam!

ULUG'BEK

Samolarda bo'ldi bir yulduz,
Ko'zlaridan oqqan har yoshi.
Balki uning chopilgan boshi
Bu olamning porloq quyoshi.



QIZLAR

Maysa kiprik, - rayhon, qoshlar misli yoy,
Bilmadim, buncha xipchindir bellari.
Lablar g'uncha, o'rilgan sochlar misli soy,
Anor yanglig' totli qizil la'llari.

Ayting, nedan buncha go'zallikka boy,
Sabo kabi mayin naqadar so'zlar.
Bu yuzlar oldida oy ham xiradir,
Asli tabiatning husnisiz, qizlar.

TANITISH

"Hayolda qad rostlagan orolcham,
Mensiz balki bir oz xomush, zerikkan", -
Degancha boraman shirin o'y bilan,
Ammo u tanimas, so'raydi: "Kimsan?"

Tanita boshlayman shu chog' o'zimni,
U jimgina tinglab turar so'zimni.
Hayajon yoshiga to'ldirib tashlar
Birdan beixtiyor ko'ngil ko'zimni.

O'jar hayollarning ushlab sochidan,
Birga kezib yurgan sho'xchan qizaloq -
Men - mehr tog'ida lovullab o'sgan -
Yellarda tebranib turgan qizg'aldoq

(Ba'zi qo'shiqlarni eshitib).

Yerda turib, bekor, og'a,
Samodan so'z ochdingiz.
Qani o'sha marjon yulduz?
Oyni bermay qochdingiz.



Istagim shu: siz falakdan
Oyni olib bering-chi!
Bo'ynimizga loqal bir -
Marjon taqib qo'ying-chi!

Bilsangiz, bu telba oshiq
Yolg'on so'zni yoqtirmas.
Balandparvoz sizdaylarni
Sodda qizlar xush ko'rmas.

Soxta, yolg'on va'dalarni
Ayta bermang, siz qayting.
Hey, muqaddas ishq oldida
Rost, mardona so'z ayting.

Marg'ilon shahrida ajib navolar,
Uvaysiy toridan taralar hazin.
"Sog'indim" deganCHA yosh olib ko'zga,
Qalb titrar, yurakda armonlar - tugun.

Ey devona Mashrab, yo'qsan-da bunda,
Sening ishqing bilan sirdosh bir hayol
Alamlarin olib sho'rlik qalamdan,
O'tli baytlar yozar shoira ayol.

Mardona chertganCHA hayot jomini,
Umrini aytadi bir qo'shiq qilib.
"Musofirman, g'aribman, bekasu besas", -
Degan iztiroblar bag'rini tilib...



Dilnoza O'zganova

Xo'jaobod tibbiyot kolleji-
ning hamshiralik bo'limi
talabasi.



YOMG'IR

Shovullab yog'ar yomg'ir,
Yuvar changu gardlarni.
Changu gardmas, go'yoki

Dillardagi dardlarni.
Yeru havo tozarar,
Yasharganday tabiat.
Orzular qanot yozar,
Yuraklar olar quvvat.

Yomg'ir mayin qo'li-la
Sochlarimni taraydi.
Shunday bahor tongida
Yeru osmon yayraydi.

ONA MEHRI

Ona mehri oftobdir,
Usiz ko'ngil betobdir.
Bu mehrga zor etma,
Bu mehrsiz xor etma.
Bu oftobdan benasib -
Bo'lib, chekmasin nola -
Dunyodagi beg'ubor,
Hech bir go'dak, hech bola!



Iroda
Yunusaliyeva

Andijon olimpiya zahiralari
sport kolleji 2-kurs talabasi.



MEHRIBONIM

1

Bir aziz inson bor,
 jonimdan aziz,
U zot-la doimo qalbm
 charog'on.

Quyoshday shafqatli, issiq nafasli,
Dunyoda yagona g'amxo'r, mehribon.
Ko'z qarachig'iday avaylar bizni,
Boshimizda tun-kun bo'lar parvona.
U mening onamdir, bizning onamiz,
Ulug'likda tengsiz u inson - ona!

•2

Kun ortidan kun o'tar,
Yillar daryodek ketar.
Ko'zlarimda xalqa yosh,
Onajon, mehringiz o'rtar.

Dugonamning onasi
Yopib berar issiq non.
Erkalatar dadasi,
Dugonam boshi osmon...

Havas bilan boqib men,
Sizni izlab yo'qlayman.
"Siz ham meni o'ylaysizmi?" -
Deya unsiz yig'layman.

Ishonaman: bir kuni
Bag'ringizni ochasiz.
Tosh qalbingiz eriru
Kunday mehr sochasiz!



Ma'suma Rizaxo'jayeva

Xo'jaobod tumanida tug'ilgan. Xo'jaobod tibbiyot kolleji talabasi.

She'rlari viloyat gazetalari
e'lon qilingan.



BOBUR MIRZO

Umarshayx Mirzoning xonadonida
Fayzli bir tongda kun chiqdi porloq:
Xushxabar tarqaldi yurtga, xushxabar -
Dunyo yuzin ko'rmish pahlavon chaqaloq!
Vodiyni chulg'amish iliq bir havo,
Tabiat ham kulmish quvonchdan behad.
Hukmdor shodligi olamga sig'mas,
Ko'rmish u xislatli, o'ktam bir farzand.
Kun o'tdi, oy o'tdi, yillar ham o'tdi,
O'n ikki yoshida Bobur bo'ldi shoh.
Vatanin asrashda xalqqa bosh bo'ldi,
Lek g'anim borligin sezmedi, e voh!
Yurtda avj oldi nayrang, makrlar,
Xasadchi, g'addorlar talashdilar toj.
Tinchlikka darz ketdi, el-yurt talandi,
Osuda bo'lmoqqa qolmadi iloj.
"Do'stginam" deb yurgan Ahmad Tanballar
Yosh Bobur boshiga ko'tardilar tig'.
Jang qildi, olishdi, kurashdi Bobur,
Uni siylamadi tole, vo, darig'!
"Hind sori yuzlandi o'z yerin qo'yib",
Garchi shoh, lek dilda daryo o'kinchi.
Qalbini tirnadi bir armon mudom,



Uni o'rtab o'tdi Vatan sog'inchi!
Avlodlarga qoldi u zotdan meros:
Mardlik, fidoiylik, shohona asar.
Inson boylik bilan boqiy qololmas,
Umrni manguga bezar bir g'azal!

VATANIM

Bu tong o'n to'rt yoshni qarshi olding sen,
Mening hur va ozod, ona Vatanim.
Senga omad, tinchlik tilagayman men,
Behazon gullarga chulg'an, chamanim!
Mustaqillik tonggi otgan lahzalar
Bobolar duoga ochdilar qo'lin:
"Baxting mangu bo'lsin, hurliging boqiy,
O'llohim, yurtimning ravon et yo'lin!"
... Boshingga musibat tushgan onlarda
Dushmanlar shod bo'ldi, do'stlar bag'ri qon.
Hayriyat, yelkangga oftob tegdi,
Boshingga baxt qushi qo'ndi, onajon!"
Bag'ringni to'ldirdi o'g'il-qizlaring
Muqaddas istiqlol qadriga yetgay.
Sen uchun gar zarur bo'lib qolsa jon,
Hech bir ikkilanmay jon fido etgay.
Faqat sen omon bo'l, tinchu obod bo'l,
Baxtu baxtiyorlik faqat sendadir.
Sen bilan umrimiz farovon, go'zal,
Sen bilan topgaymiz toleyu qadr!



Gulzoroy To'lanova

Sirdaryo viloyatining Zomin tumanida tug'ilgan.

Adabiyotga erta havas qo'yib, she'rlar mashq qiladi.

U hozir Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanida yashaydi va Xo'jaobod tibbiyot kolleji 2-kursi talabasi.

Gulzoroy kollejdagi Hamidaxon Abdug'aniyeva rahbarlik qilayotgan "Yosh qalamkashlar" adabiy to'garagining faol a'zosi.



HAMSHIRALAR

Mehrlari bir jahon, qalbi daryo,
Shirin so'zu, o'z kasbiga oshiq-shaydo,
Bemorlarning yuragiga berar ziyo,
Qo'li yengil, olijanob hamshiralar.
Oq halati egniga xo'b yarashadi,
Bemorlarga jigariday qarashadi,
Havas -la "Kim qizisiz?" deb so'rashadi,
Qo'li yengil, olijanob hamshiralar.
Odamlarning sog'ligiga posbonlarim,
Himmatlari ko'ngli kabi osmonlarim,
Dardlariga kecha-kunduz darmonlarim,
Qo'li yengil, olijanob hamshiralar.
Siz kimlarning qizi, kimning yoridirsiz,
Siz elimning nurday toza oridirsiz,
Suyanchig'i, sha'ni, iftixoridirsiz,
Qo'li yengil, olijanob hamshiralar!



Sevarabonu Anvarova

Andijon shahrida tug'ilgan.
Andijon iqtisodiyot kolleji bank
mutaxassisligini 2005 yilda
tugallagan.

TO'RTLILIKLAR

Ishqning sinovlari beomon,
Olovida o'rtangay qalbim.
Ehtirosi qalbda beomon,
Qamrab olar dunyoviy dardni.

Muhabbatdan yonarmi qalbim,
O'ti o'rtar xasta yurakni.
Kim ham bilar ichimda dardim,
"Qo'y, endi",-deb, eski ertakni".

GUVOHIM BOR

Bevafo san, anhor bo'yi guvohim bor,
Yuragimda ko'kka o'rlar bir ohim bor.
O'zing aytgin, mening qanday gunohim bor?
Ey toshbag'ir, bir so'z demay tashlab ketding.

Men sendan dunyolar so'ramayman, yo'q,
Gavharu tillolar so'ramayman, yo'q,
Jannatu navolar so'ramayman, yo'q,
Bir bor tabassum qil, shu menga yetar.

Ishqingda qanchalar yondim, chidadim,
Vafo borligidan tonding, chidadim,
Yo'qlamay qo'ysang ham ko'ndim, chidadim,
Bir bor tabassum qil, shu menga yetar.



***Nigora
Toshxo'jayeva***

1989 yilning 10 fevralida
Andijon shahrida tug'ilgan.

Hozir u Andijon tibbiyot
akademik litseyida tahsil
olmoqda.

BAXT

Esla meni tonglar otganda,
Darvesh quyosh o'ychan botganda,
Alamlarim dardim sotganda,
Meni bir zum eslaganing—baxt.

Iztiroblar begonamas, o'z,
Mayli, sevma meni, qora ko'e.
Aytmasang-da biror shirin so'z,
Meni bir zum eslaganing -baxt.

Sevging meni eltar osmonga,
Yuzlar oshno bo'ldi somonga,
Borar bo'lsam qaysi tomonga,
Meni bir zum eslaganing - baxt.

Bir kun kelib o'tganda qadrim,
Sen tuyarsan men tuygan dardim.
Shunda meni eslarsan balkim,
Shu bir lahza eslaganing - baxt!



Mashhura Mamitaliyeva

Andijon Davlat universiteti
qoshidagi akademik litsey-
ning xorijiy tillar yo'nalishi
bo'limi talabasi.

2002 yili "Qo'ng'iroq sa-
dosi" nomli she'rlar to'plami
nashr etilgan.



E'ZOZLAYIN

E'zozlayin umrim boricha,
Onamdayin azizim Vatan.
Ko'zlarimga to'tiyo aylay -
Gardingni ham. So'zim yurakdan!

Ortda qoldi og'ir kunlaring,
Ozod yurtim, erking abadiy.
Farzandlaring hurliging asrar,
Tinchligingni saqlarlar qat'iy.

To'marisdek jasur qizlaring,
Alpomishdek senda har bir er.
Ular oqlar bergan tuzlaring,
Omon bo'lgin, Vatan, ona yer!

ISHONCH

Olis so'qmoqlarda, shoshqin soylarda
Goh o'ynab quvongan bolaligim bor.
Mavjli daryolarda, bulut bag'rida
Gul bo'lib bo'y cho'zgan toza orzular.

Oq ko'ylakli go'zal gulbahor
Bolaligim kabi beg'ubor.
Orzularim qanotlarida
Men uchurman, ishonch barqaror.



Surayyo Akbarova

1988 yili Ulug'nor tumani
Urganji qishlog'ida tug'ilgan.

Hozirda Bo'z pedagogika
kolleji mehnat ta'limi bo'limi 2
bosqich talabasi.



BOLALIK

Bir-birini quvib o'tadi yillar,
Bahorlar o'tkinchi, keladi kuzak.
Maysadek jur'atli go'zal bolalik-
Umr gulshanida so'lmagay beshak.
Olislab ketdi u, toychoqday kishnab,
Ortidan armon-la termulib qoldim.
Nahot ortga qaytmas ma'suma damlar?
Goh shirin tamshanib, xayolga toldim.
Bolalik, sarobday berkingding qayga?
Diini oshno etib qo'shiqqa, nayga...

SEVIB YASHAYMAN

G'uncha dudog'ingday to'lib yashayman,
Chechaklarga sirdosh bo'lib yashayman.
Men ishqim tufayli anduhni bilmay,
Baxtimdan entikib, kulib yashayman.
Laylilar ishq darsin olsinlar bizdan,
O'lsam o'lamanki, kechmayman sizdan.
Sevgimni ko'zimday avaylab o'tgum,
O'zimdan tonsam-da, tonmayman so'zdan.
Men sevib yashayman sadoqat bilan,
Egiz tug'ilganman muhabbat bilan.
Yonib kul bo'lishdan baxtiyorman men,
Sizga bo'lgan ishqiy harorat bilan!



Gulbahor Otaxonova

Shahrixon shahrida tug'ilgan. Shahrixondagi 4-maktabning 9-sinfini tugallab, AndMII qoshidagi Akademik litseyga o'qishga kirgan.

Hozir shu litsey talabasi



Ajdodlarni yodlab goh
Yurak duk-duk uradi.
Go'yo har bir ishimni
Ular ko'rib turadi.

Bo'lsam hamki navnihol,
Shijoatim shiddatkor.
Chunki qonimda jasur -
Momolarim qoni bor.

Navoiyga zo'r ixlos
Qo'limga qalam tutar.
Ulug'lar ruhini shod -
Etmoq qalbidan o'tar.

Ezgu ixlos va havas -
Kuylarimga hamnafas.



MEHRIGIYO

Gul quyoshning himmati-la ochar ko'z,
Umid-kurtak, g'uncha boqar mahliyo.
Latif baytlar aytgim kelar dilafro'z,
Yodim tonglar kabi bo'lib serziyo.

Rayhon mavji uzra o'ynar yog'dular,
Ilhom pari chertar dilni etib soz.
Lolazorday mavjlanardi tuyg'ular,
Atirgulday chayqalar dil jo'rovoz.

Vatan - nonday aziz, ulug' - muqaddas,
Ijod, ilmu hunar - mavjli anhor.
Yoshu yoshi ulug' bilan hamnafas -
Rivoj topib dillar etar iffixor.

Ixlos mehri manglayida shu'lador,
Mehrigiyo gullar ochar Gulbahor.



***Mavluda
Jumaboyeva***

Andijon industrial pedago-
gika kolleji 2-kurs talabasi.



SOG'INDIM

Hamisha nur sochgan oftob yuzingni,
Mehr bilan menga boqqan ko'zingni,
Bolam deya jaranglagan so'zingni,
Sog'indim men seni bu kun, onajon.

Menga atab tikkan do'ppilaringni,
"Uxla, qizim", deya aytgan allalaringni,
Boshim silab ulg'aytirgan pallalaringni,
Sog'indim men yana bu kun, onajon.

Dilingda yo'q zarra g'ubor va g'araz,
Qilmaysan hech qachon ginayu araz,
Ko'rmasam chidolmayman seni bir nafas,
Sog'indim men seni bu kun, onajon.



Gulshanoy Musaxonova



Gulshanoy Musaxonova Marhamat tumani Qoraqo'rg'on qishlog'ida tug'ilib o'sgan iqtidorli yoshlardan biri.

Ziyoli oilada tavallud topgan Gulshanoy qobiliyati erda uyg'ondi. U maktabga bormasdan o'pasi va akasidan o'qish va yozishni o'rganib oldi. Birinchi sinf dasturlarini ham o'zlashtirib tugatdi. O'quvchilik yillarida fanlar olimpiadalarida faol qatnashib, har yili yuqori o'rinlarga sazovor bo'lib keldi. Turli tanlovlarda ham g'oliblar safida bo'ldi.

Gulshanoy Marhamat qishloq va suv xo'jaligi kollejining talabasi. U kollej hayotidagi tadbirlarda faol qatnashadi. Izlanuvchan, intiluvchan Gulshanoy "Siz tarixni bilasizmi?" (2003 y.) "Milliy g'oya - bizning g'oya" (2003) viloyat tanlovlarida faxrli ikkinchi o'rinni oldi. Jamoatchi, tashkilotchi talaba kollej radiosida boshlovchilik ham qiladi. "A'lo baholarga o'qish bilan bir vaqtda "Ziyo" badiiy dastasiga suhandonlik qiladi. 2003 yilgi "Suhandon - 2003" viloyat ko'rik tanlovining "Eng yaxshi suhandon" nominatsiyasi sohibasi bo'lmish Gulshanoy raqs san'atida ham iqtidorini namoyish etib, mustaqillik va navro'z tantanalaridagi chiqishlari bilan muxlislar hurmatiga sazovor bo'ldi.

- Gulshanoy vaqtning har bir lahzasini bekorga o'tkazmaydi, - deydi kollej ona tili va adabiyoti o'qituvchisi Xolidaxon Turdiyeva. - Katta maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan bu qiz mohir pazanda, usta chevar. Biz Gulshanoy Musaxonova bilan faxriyamiz.

Kelajakda ingliz tili mutaxassisi bo'lishni, mashhur "Mashhura" firmasida o'qib, dizaynerlik kasbini egallashni orzu qilayotgan Gulshanoy hozir kollejda yuqori baholarga o'qib, tengdoshlari ichida obro'-e'tibor topmoqda.



***Shahnoza
Ahmadjonova***

**Andijon maishiy xizmat
kolleji 3-kurs talabasi.**



MUHAMMAD YUSUF

She'rlarga baxsh etdi qalb tug'yonlarin,
Bunday ulug' zotga ming bor ofarin,
Andijon farzandi sodda, kamtarin,
Muhammad Yusufni unutmaydi el.

Muhabbati qoldi she'rga aylanib,
Adolat, iymonni kuyladi yonib,
Shunday shoiridan iftixorlanib,
Muhammad Yusufni unutmaydi el.

Teran nigohlari, yuksak ijodi,
Ibratga loyiqdir o'tgan hayoti.
O'zi yo'q bo'lmadi, Tark etmas yodi,
Muhammad Yusufni unutmaydi el.

Asii bunday zotni unutish gunoh,
Pokiza qalbiga she'rlari guvoh,
Endi uni rahmat aylasin Oллоh,
Sodda Muhammadni unutmaydi el.



**Zilola
Husniddinova**

1988 yilning 31 yanvarida
Ulug'nor tumanida tug'ilgan.
Mingbuloq agrosanoat kasb-
hunar kolleji 2-kurs talabasi.



Onalar "bolam" deb yig'lamasinlar,
Ko'z yosh to'kib qalbni tig'lamasinlar.
Bolasin surati qo'lida qolib,
Judolik o'tida yo'qlamasinlar.

Lek ajal o'z ishin qiladi ekan;
Onani goh judo aylar farzanddan.
Sochini oqartib, yo'qotib tinchin,
Yuzin ajin qoplab, qaritib birdan.

Nogahonda kelgan shafqatsiz o'lim
Bolasin oradan olsa-da bevaqt,
Armonlarga to'la ona qalbidan -
Farzand yodin olib ketolmas hech vaqt.

Yo'lingda uchrab goh shum hasadgo'ylar,
Oyog'ing chalmoqni rejalar, o'ylar.
Kim bo'lma, sha'ningga tushirmoq-chun dog',
Uyqusi kelmaydi erta-kech -`har chog'.

Bir o'yan topadi chiroyli yursang,
Qovog'in uyadi hattoki kulsang.
Birovdan kamchilik topa olmasa,
O'z aftidan kulib bo'ladi xursand.



Sardora

Ulug'nor tumani, Yangiobod qishlog'ida tavallud topgan.

2003 yili Mingbuloq agrosanoat kasb-hunar kollejiga o'qishga kirgan. Hozir ushbu kollejning 2-kurs talabasi.



HAYOL

Yaxshiyam, o'ylaru xayol borligi,
Gohi payt bilinmas dunyo torligi.
Unutilib bir zum g'ussa, tashvishlar,
Chekinar iztirob, qalblar zorligi.

O'zingda ushalmas orzularing ham
Keksami, navqiron - baxtli chog'ligi -
Tushda kechgan kabi totli tuyular,
Yaxshiyam, o'ylaru xayol borligi.

Sevishgan beg'ubor yosh yuraklarda
Muhabbat shoh bo'lib, ko'ngillar to'lar.
Eng go'zal va aziz kishing yoningda,
Ezgu tilaklaring muhayyo bo'lar.

Yulduzli osmonga boqsang tunlari,
Ular-la suhbating bo'lgay malolsiz.
Eng nochor chog'da ham, baxtli damda ham
Insoq ojiz qolar deyman xayolsiz...



Dildora Omonova

Ulug'nor tumani, Mirzaah-
medov shirkat xo'jaligi
o'ramida tug'ilgan.

2003 yili Mingbuloq
agrosanoat kasb-hunar kol-
lejiga o'qishga kirgan. Hozir
shu kollejning 3-kursida
o'qimoqda.



.LOLA

Erta tongda turib, ko'zim -
Tushdi ochilgan lolaga.
Uning dog'li barglaridan
Chiqqan alamli nolaga -

Beixtiyor rom bo'ldimu,
Bu holatdan kuydi dilim.
Dedim "Nega yonmoqdasan,
Sababin ayt, lola gulim?"

Seni sevib onajonlar
Noming qo'yar qizlariga.
U nimadir dedi chog'i,
Tushunmadim so'zlariga.



Gulbahor Nurmatova

Andijon san'at kolleji musi-
qashunoslik bo'limi, 1 kurs
talabasi,



YOMG'IR

Yomg'ir yog'ar shivirlab,
Yaproqlarga aytib roz.
Maysalar yiltiraydi
Nigohi chaqrab bir oz.

Havoni tozalaydi,
Chang - g'uborni yuvar u.
Tiniqlatib xayolni,
Charchoqlarni quvar u.

BOLALIK ORZUSI

Bolaligim, oppoq qanot yozgin endi,
Samolarda oqqush kabi suzgin endi.
Orzularning cho'qqisiga yetmoq uchun
G'ayrat qilib dunyolarni kezzgin endi.

Oq bulutlar ortidan goh chopib yursang,
Oftobning huzurida chaqrab tursang.
Bolaligim, men sen bilan qolib mangu
Iloj bo'lsa, yashar edim bo'lib hursand.



**Sardorbek
Qosimov**

Andijon Davlat tibbiyot
instituti qoshidagi Akademik
litseyining 2-kurs talabasi



BOLALIK

Qushlar ketsa, qaytib keladi,
Sho'x-sho'x qo'shiq aytib keladi.
Bir iztirob qalbim tiladi.
Qaytib kelmas ketgan bolalik.


Bahor Qayta maysalar chiqar,
Takror-takror chaqmoqlar chaqar,
Takrorlanmas, ko'nglim biladi:
Meni tashlab ketgan bolalik.

Sho'xlik oqib ketganday soyda,
Qalb ham to'lin porlagan oyda.
Eh, sog'inib she'rlar yozaman,
Meni tashlab ketgan bolalik!



MUNDARIJA

F. Asronov. <i>Yoshlikning jo'shqin tuyg'ulari</i>	3
Sh. Abdug'afforova. Dunyoga boq	6
M. Nasriddinova. Onajon	7
"Hali ushalmagan"... Ustoz	8
M. Uraimova. Ayol	9
Siz bilmaysiz. Iltijo	10
D. Abdurahmonova. Bolaligim. "Ko'kka..."	11
Siz uchun. Qayda qoldi.	12
A. Usmonova. Vatan.	13
"Sensizlikda..."	14
"Tun..."	15
M. Mirzayeva. Inson umri.	16
Ishqing. "Atirgul..."	17
M. Tursunova. "G'urur. Aytgil.	18
G. Ochilova. Sukut qa'rida.	19
Sen. Ona.	20
Dard.	21
G'. Mirzo. Yuragim.	22
Qiz hazili. Ko'cha supurmay...	23
Seni o'ylayman	24
Gul qizlar	25
N. Sulaymonova. Senga. So'nggi bor..."	26
X. Omonova. O'gay ona. Hikoya.	27
Z. Rahmonova. Estella. Hikoya.	30
N. Tojiyeva. Intiladi. Uchgan yulduz.	33
H. Abdullayeva. Onam. O'kinch.	34
Ko'zlaring ma'yus. Hazil.	35
S. Anorova. Tomchilar. Bormikan.	36
Ayt	37
G. O'ljaboyeva. Sizni eslayman. "Oh, bu..."	38
X. Matkarimova. Vatanim.	39
Tushimda.	40
N. Begmatova. Qizlar	41
Armonli ishq.	42
S. Kattabekova.	43
H. Mamadaliyeva. Orzu. Ulug'bek.	44
Qizlar. Tanitish. "Yerda turib..."	45
"Marg'ilon shahrida"...	46
D. O'zganova. Yomg'ir. Ona mehri	47
I. Yunusaliyeva. Mehribonim.	48



M. Rizaxo'jayeva. Bobur Mirzo.	49
Vatanim.	50
G. To'lanova. Hamshiralar.	51
S. Anvarova. To'rtliklar. Guvohim bor.	52
N. Toshxo'jayeva. Baxt.	53
M. Mamitaliyeva. E'zozlayin. Ishonch.	54
S. Akbarova. Bolalik. Sevib yashayman.	55
G. Otaxonova. "Ajdodlarni..."	56
Mehrigiyo.	57
M. Jumaboyeva. Sog'indim.	58
G. Musaxonova.	59
Sh. Ahmadjonova. Muhammad Yusuf.	60
Z. Husniddinova. "Onalar...". "Yo'lingda..."	61
Sardora. Xayol.	62
D. Omonova. Lola.	63
G. Nurmatova. Yomg'ir. Bolalik orzusi.	64
S. Qosimov. Bolalik.	65



Adabiy-badiiy nashr

YOSHLIK TUG'YONLARI

(She'rlar, hikoyalar)

**Nashrga mas'ul: Soyibjon Hakimov
Soyibjon Jalilov**

Muharrir:	Usmonjon Shukurov.
Musavvir:	Sevara Qurbonova.
Texmuharrir:	Bahodirjon Hoshimov.
Musahhih:	Madina Usmon
Kompyuterchi:	Hamidjon Parpiyev.

Bosmaxonaga 2005 yil 18 noyabrda berildi.
Bosishga 2005 yil 22 dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108. 1/32 Hajmi: 4,25 bet.
Buyurtma № 1993. 5050 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda

"Andijon nashriyot-matbaa"
OAJ bosmaxonasida bosildi.